

Talabalar ishtirokida tashkil etilgan Ilmiy kengashning navbatdagi yig'ilishi



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tanqidiy-tahliliy ruhda o'tgan Ilmiy kengashning navbatdagi yig'ilishi o'ziga xosligi bilan ajralib turdi.



Institut rektori Ibrohim Yo'ldoshev rahbarligida o'tkazilgan yig'ilishda aniqlangan kamchilik va muammolarning kelib chiqish sababalari, ularni bartaraf etish yo'llariga asosiy e'tibor qaratildi.



Dastlab, Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i M. Dusmurodovning hisoboti tinglandi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining faromonlari, farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va bayonlari, vazirliklarning buyruqlari, topshiriqlarining bajarilishi masalasi ko'rib chiqildi. Ushbu yo'nalishda kamchiliklarga yo'l qo'ygan mas'ullarning hisobotlari tinglanib, agar shu kabi kamchiliklar yana takrorlansa ularga nisbatan qat'iy choralar ko'rilishi aytiladi.



Navbatdagi masala –Ta’lim sifatini nazorat qilish bo’limi boshlig’i O. Dadamirzayevning ta’lim tizimi va madaniy-ma’rifiy ishlar bo’yicha tahliliy, tanqidiy ma’ruzasi tinglandi.E’tirof etilganidek, fakultetlarda ta’lim tizimi, dars jarayonlarida hamon oqsoqliklar, darsni tashkil etishda kamchiliklar ko’zga tashlanmoqda. Shundan kelib chiqilgani holda institut rektori Ibrohim Yo’ldoshev tomonidan bu kabi holatlarni zudlik bilan bartaraf etish bo’yicha mas’ullarga aniq ko’rsatmalar berildi. O.Dadamirzayevning attestatsiyaga tayyorgarlik holati borasidagi hisoboti yuzasidan ham tegishli tavsiyalar berildi.



Kun tartibidan o‘rin olgan navbatdagi masala – Teatr san‘ati fakultetining qator ta‘lim yo‘nalishlarida darslarni o‘tishdagi salbiy holatlar bo‘yicha mas‘ullarning fikrlari tinglandi, sabablariga aniqliklar kiritildi hamda kelgusida bu kabi kamchiliklarni oldini olish borasida Ibrohim Yo‘ldoshev tomonidan aniq tavsiyalar berildi.



Bevosita talabalar ishtirokida tashkil etilgan Ilmiy kengashning yig'ilishida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi J.Nishonovaning axboroti tinglandi. Unda institut talabalarini moddiy rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash, yoshlar yetakchilariga mutasaddilarning munosabati singari qator masalalar o'rtaga tashlandi.



J.Nishonovanning talabalar uchun tikuvchilik sexini ochish, bir necha tugaraklarni tashkil etish, yoshlarga innovatsion xona ajratish, noyabr oyida "Talabalar festivali"ni o'tkazish singari takliflari institut rektori, kengash a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi va buning uchun zarur mablag'lar ajratilib, tegishli choralar ko'riladigan bo'ldi.



Shuningdek, yig'ilishda kun tartibiga kiritilgan boshqa masalalar ham ko'rib chiqildi va kengashning tegishli qarorlari qabul qilindi.

Matbuot kotibi